

DINIY E'TIQODLARDA EKOLOGIK MADANIYATGA OID QARASHLARNING YORITILISHI

Egamberganova Matluba Jobborgonovna, Urganch innovatsion universiteti dotsenti

REFLECTIONS ON ECOLOGICAL CULTURE IN RELIGIOUS BELIEFS

Egamberganova Matluba Jobborgonovna, Associate Professor, Urgench Innovative University

ОСВЕЩЕНИЕ ВЗГЛЯДОВ НА ЭКОЛОГИЧЕСКУЮ КУЛЬТУРУ В РЕЛИГИОЗНЫХ ВЕРОВАНИЯХ

Эгамберганова Матлуба Джобборгоновна, доцент Ургенчского инновационного университета



<https://orcid.org/0009-0004-9607-3948>

e-mail:
matluba93@urgiu.uz



Annotatsiya: Maqolada diniy e'tiqodlar va ekologik madaniyat o'rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalar ilmiy nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Insoniyat taraqqiyotining ibtidoiy bosqichlarida shakllangan animizm, totemizm va tabiatga sig'inish kabi diniy qarashlarning ekologik ong va axloqiy me'yorlarni shakllantirishdagi o'rni ko'rsatib beriladi. Xorazm vohasida keng tarqalgan suv marosimlari hamda Umay Ona timsoli ekologik madaniyatning muhim ko'rinishlari sifatida izohlanadi. Shuningdek, turkiy mifologiya va qadimiy marosimlarning zamonaviy ekologik qadriyatlar bilan bog'liqligi ilmiy asoslarda yoritiladi.

Kalit so'zlar: ekologik madaniyat, diniy e'tiqodlar, animizm, totemizm, tabiatga sig'inish, Umay Ona, Xorazm marosimlari, turkiy mifologiya.

Abstract: The article scientifically analyzes the historical and cultural interrelation between religious beliefs and ecological culture. It emphasizes the role of animism, totemism, and nature worship, which emerged in the early stages of human development, in shaping ecological awareness and ethical norms. Special attention is given to Khorezm water rituals and the cult of Umay Ana as significant manifestations of ecological culture. Furthermore, the article explores the relationship between Turkic mythology, ancient rituals, and modern ecological values from an academic perspective.

Keywords: ecological culture, religious beliefs, animism, totemism, nature worship, Umay Ana, Khorezm rituals, Turkic mythology.

Аннотация: В статье с научной точки зрения рассматриваются историко-культурные связи между религиозными верованиями и экологической культурой. Показана роль анимизма, тотемизма и культа природы, возникших на ранних этапах развития человеческого общества, в формировании экологического сознания и моральных норм. Особое внимание уделено водным обрядам Хорезма и культу Умай-ана как важным проявлениям экологической культуры. Также анализируется связь тюркской мифологии и древних ритуалов с современными экологическими ценностями.

Ключевые слова: экологическая культура, религиозные верования, анимизм, тотемизм, культ природы, Умай-ана, обряды Хорезма, тюркская мифология.

KIRISH. Insoniyat taraqqiyoti davomida diniy e'tiqodlar nafaqat ijtimoiy hayotning ma'naviy asosini, balki tabiat bilan munosabatlarning muayyan me'yorlarini ham shakllantirgan. Qadimiy jamiyatlarda animizm, totemizm, tabiat unsurlariga sig'inish kabi diniy qarashlar ekologik ongning dastlabki manbalari sifatida namoyon bo'lgan. Masalan, E.Tylor va E.Durkheim ta'kidlaganidek, ibtidoiy diniy e'tiqodlarda inson va tabiat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik g'oyasi muhim o'rin tutgan. Xorazm vohasida shakllangan qadimiy marosimlar, suvga bo'lgan ehtirom va Umay ona timsoli ekologik madaniyatning tarixiy ildizlarini yaqqol ifodalaydi. Shu bois diniy e'tiqodlarda ekologik madaniyatga oid qarashlarni o'rganish, nafaqat etnografik va madaniy merosni, balki hozirgi davr ekologik qadriyatlarining shakllanish jarayonini chuqurroq anglash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Diniy e'tiqodlar va ekologik qarashlarning o'zaro bog'liqligi ko'plab tadqiqotchilar e'tiborida bo'lgan. E.Tylor animizmni ibtidoiy tafakkurning asosiy shakli sifatida izohlagan bo'lsa, E.Durkheim diniy marosimlar orqali tabiat va jamiyat uyg'unligini tahlil qilgan. Y.G'ulomov Xorazmda suv resurslarining diniy marosimlar bilan aloqadorligini yoritgan, L.Potapov va Mahmud Qoshg'ariy esa Umay Ona timsoli hamda turkiy mifologiyaning ekologik ramzlarini ilmiy izohlab bergan. Mahalliy tadqiqotchilar (D.Qurbonova, D.Haydarova) Xorazm vohasidagi marosimlarning zamonaviy ekologik qadriyatlar bilan bog'liqligini ko'rsatib bergan.

Maqolada tarixiy-qiyyosiy, etnografik va mifologik tahlil usullari qo'llanildi. Diniy e'tiqodlarning turli ko'rinishlari solishtirildi, Xorazm vohasidagi marosimlar etnografik dalillar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, klassik (Durkheim, Tylor, Potapov) va zamonaviy (Qurbonova, Haydarova) tadqiqotlar qiyyosiy o'rganilib, ekologik madaniyatning diniy ildizlari aniqlab berildi.

MUHOKAMA. Ibtidoiy urf-odatlar va marosimlar insoniyat taraqqiyotining eng qadim bosqichlarida tabiat bilan o'zaro aloqaning asosiy shakli sifatida ekologik madaniyatning dastlabki qirralarini ifodalaydi. Shu davrlarda odamlar tabiatni muqaddas hisoblab, unga chuqur ehtirom

bilan munosabatda bo'lishgan. Fransuz sotsiologi É.Durkheim ta'kidlaganidek, *"Ibtidoiy marosimlar jamiyatning umumiy ongi timsoli bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, tabiat kuchlariga nisbatan hurmat, ko'pincha muqaddas shaklda ifodalanadi"*[1].

Dastlabki jamoalarda ekologik qarashlar ko'proq animizm, totemizm va tabiat kuchlariga sig'inish orqali ifodalgan. Animizm ibtidoiy e'tiqodlarning asosiy ko'rinishi bo'lib, unda daraxt, tog', daryo va hayvonlar kabi tabiat unsurlarining ruhi mavjud, deb qaralgan. Bu e'tiqod odamlarni tabiat bilan uyg'un yashashga undagan. Masalan, qadim ovchi jamoalarda ovga chiqishdan avval alohida marosimlar o'tkazilib, tabiatdan ruxsat so'ralgan. Bunday marosimlar tabiat muvozanatini buzmaslik va unga zarar yetkazmaslikka xizmat qilgan. Tylor fikricha, animizm tabiat unsurlarining har biri muqaddas sanalgan bo'lib, bu ekologik madaniyatning shakllanishiga asos bo'lgan [2]. Totemizm esa ayrim jamoalar o'zlarini muayyan hayvon yoki o'simlik bilan bog'lashgan. Totem tanlangan mavjudot hurmat qilinib, uni asrash majburiyat sifatida qaralgan. Ayrim qabilalarda totem hayvonlarni ovlash qat'iyan man etilgan, chunki ular muqaddas deb hisoblangan. Bu kabi odatlar nafaqat ayrim turlarni saqlashga yordam bergan, balki jamiyatda ekologik qarashlarning shakllanishini ta'minlagan.

Ibtidoiy dunyoqarashda yer, suv, olov va havo asosiy muqaddas unsurlar sifatida qabul qilingan. Masalan, qadimiy turkiy qabilalarda Yer ona (Umay) va Suv ruhlariga sig'inish keng tarqalgan bo'lib, bu an'ana tabiiy muhitni asrashga qaratilgan. XX asrning o'rtalaridagi etnografik kuzatishlarda Xorazm vohasida suvni qadrlash bilan bog'liq ko'plab dalillar qayd etilgan. Masalan, XX asrning 20-yillarigacha bahor faslida sug'orish tizimlarini tozalash yakunida bo'yniga pichoq urilgan ho'kiz jasad suvga tashlangan. Bu qurbonlik dehqonchilik ishlarining barakali bo'lishi, zarur suv hajmini ta'minlash va yil davomida serhosillikni kafolatlash maqsadida amalga oshirilgan. Shu marosimda suvga ho'kiz qurbonlik qilinishi bilan birga yosh yigitlar ham suvga sakrab tushishgan. Ba'zan esa turli jamoalar qurbonlik qilingan hayvon jasadini olish uchun bellashgan. G'olib bo'lganlar go'shtdan taom tayyorlab, umumiy ziyofat uyushtirishgan[3]. Ba'zi hollarda hayvonlar kanal bo'yida so'yilib,

qoni oqizilgan yoki ularning jasadi Amudaryoga tashlangan. Y.G'ulomov ma'lumotlariga ko'ra, Orol bo'yidagi muqaddas maskanlarda ham ho'kiz so'yib qurbonlik qilish odati mavjud bo'lgan[4].

Qadimgi mifologik qarashlarda tabiat hodisalari, inson dunyoqarashi va diniy tushunchalar o'z aksini topgan. Masalan, turkiy mifologiyada uch qavatli olam modeli mavjudligi qayd etiladi: osmon (Ko'k), yer va yerosti dunyosi. Osmon tangrilari orasida Ulgen asosiy yaratuvchi sifatida tasvirlanadi. Shu bilan birga, qadimiy rivoyatlarda yaratuvchilik g'oyasi Oq Ona nomi bilan bog'liq bo'lib, Ulgenga ilhom manbai sifatida ko'rsatiladi. Bu jihat qadimiy turkiy jamiyatlarda ayol ilohalarning ham muhim o'rin tutganini anglatadi. Turkiy mifologiyada "Hayot daraxti" timsoli ham katta ahamiyat kasb etgan. Daraxt Umay Ona obrazi bilan bog'lanib, u tug'ilish, ona mehrini ifodalovchi arxetip sifatida qaralgan. Umay Ona homilador ayollar va bolalarni asrovchi iloh sifatida tasavvur qilingan[5].

NATIJALAR. Mahmud Qoshg'ariy ham "Umay" so'zi homilani himoya qiluvchi qobiq, ya'ni platsenta ma'nosida ishlatilganini qayd etadi[6]. Shu asosda Umay Ona tug'ilish va onalik bilan bevosita bog'langan timsol sifatida tasvirlangan. Umay Ona obrazi ba'zan Humoy qushi shaklida ham ifodalangan. Bu qush baraka, baxt va tangrining elchisi sifatida qaralgan. Xorazmiy o'zining "Muhabbatnoma" asarida ham Humoy nomini tilga oladi[7]. Ozarbayjon adabiyotida ham Humoy qushi haqida ko'plab she'riy misralar uchraydi. Shu bilan birga, hozirgi davrda ham turkiy xalqlar o'rtasida Umay Ona e'tiqodining izlari saqlanib qolgan. Ayrim o'zbek va qirg'iz ayollari muhim ish boshlashdan oldin "Bu mening qo'lim emas, Umay onamning qo'li" degan jumlaning ishlatadilar. Bu esa qadimiy diniy timsolning bugungi madaniyatda ham yashab kelayotganini ko'rsatadi. Xullas, Xorazm o'zbeklarining ibtidoiy marosim va odatlarida ekologik madaniyat tabiat bilan chambarchas bog'langan diniy qarashlar va amaliyotlar orqali ifodalangan. Mintaqaning geografik sharoiti, xususan Amudaryo deltasidagi hayot, odamlarning tabiat bilan munosabatini shakllantirishda hal

qiluvchi rol o'ynagan. Shu bois, ularning diniy e'tiqod va marosimlarini o'rganish ekologik qarashlarning tarixiy ildizlarini ochib berishda katta ahamiyatga ega.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, diniy e'tiqodlar ekologik madaniyatning shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Totemizm, animizm, tabiat unsurlariga sig'inish kabi diniy qarashlar insonning tabiatga munosabatini tartibga solgan, uni asrab-avaylashga da'vat etgan. Xorazm vohasidagi suv marosimlari va Umay ona kultining o'rganilishi shuni ko'rsatadiki, qadimiy turkiy dunyoqarashda ekologik muvozanat masalasi diniy va mifologik timsollar orqali ifodalangan. Demak, ekologik madaniyat bugungi kunda global muammo sifatida kun tartibiga chiqayotgan bir sharoitda uning tarixiy-madaniy ildizlarini tahlil qilish, ekologik tafakkurning rivojlanish bosqichlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shu jihatdan diniy e'tiqodlar ekologik qadriyatlarni shakllantiruvchi manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Durkheim, E. *The Elementary Forms of Religious Life*. – New York: Free Press, 1912. – P. 219.
2. Tylor, E.B. *Primitive Culture*. – London, 1871. – P. 143.
3. Курбанова Д. *Хоразм воҳасининг қадимги ва илк ўрта асрлар маънавий маданияти*. – Тошкент, 2005. – 147 б.
4. Гулямов Я. *Хоразмнинг суғорилиш тарихи*. – Тошкент: Фан, 1959. – 220 б.
5. Потапов Л.П. Умай – божество древних тюрков в свете этнографических данных // *Тюркологический сборник*. – Москва: Наука, 1973. – С. 265–286.
6. Қошғарий Махмуд. *Девони лугатит турк*. 3 жилд. – Тошкент: Фан, 1963. – Б. 303.
7. Хайдарова Д. Умай она, Хумой куши тилсими – оламнинг яратилишида аёл култи қандай бўлган? // *Oyina.uz* – <https://oyina.uz/kiril/article/3614>.